

**o‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘zbek shevashunosligi markazi

**“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI:
AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari**

2023-yil 20-may

TOSHKENT – 2023

“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2023. bet.

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Normurodova N. Z., filologiya fanlari doktori, professor;

Jamoliddinova O.R., pedagogika fanlari doktori, professor;

Normamatov S.M., filologiya fanlari doktori (DSc), professor;

Abdushukurov B.B., filologiya fanlari doktori, professor;

Abdinazimov Sh.N., filologiya fanlari doktori, professor;

Ashirboyev S., filologiya fanlari doktori, professor,

Jo‘raho‘ziyev N.I., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;

Rahmatov M.M., filologiya fanlari doktori, dotsent;

Tilavov A.X., filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Xidraliyeva Z.R., katta o‘qituvchi;

Aliqulova H., katta o‘qituvchi;

Qodirov U.A., o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasidan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: maliyot, metodologiya, yangicha yondashuv”** mavzusidagi 2023-yil 20-mayda o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriyat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

1. Vafojev To'ra: Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida 1967-yilda tug'ilgan. Kasbi: shafyor.
2. Vafojeva SHamsiya: Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanida 1972-yilda tug'ilgan. Kasbi: uy bekasi.
3. Mallayev Abror: Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida 1992- yilda tug'ilgan, kasbi: yakka tartibdagi tadbirkor.
4. Turopova Farida: Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida tug'ilgan, kasbi: o'qituvchi.
5. Doniyorova Gulandom: Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida tug'ilgan kasbi: o'qituvchi.
6. Xushvqtov Fazliddin: Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan,
7. Yo'ldoshev Akrom: Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida tug'ilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. - Тошкент: Фан, 1966. -Б.160-249.
2. Джураев Б. Шахрисабзский говор узбекского языка. -Ташкент: Фан, 1964.-202 с.
3. Абдуллаев Ф.А. Диалектал луғат тузиш принциплари ҳақида // ЎТА. -Тошкент, 1966. 2-сон. 39-бет.
4. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. -Тошкент, Фан, 1978.
5. Алиев А., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. -Тошкент, 1976.
6. Баскаков Н.А. Задачи составления тюркских ареальных исторических диалектологических атласов // Советская тюркология. 1982. Вып.
7. Бегалиев М. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеvasи лексикаси. -Тошкент, Iqtisod-Moliya, 2007.
8. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Тошкент, 1963.
9. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент, Фан, 1990.
10. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Тошкент, Ўқитувчи, 1996.
11. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент, Ўқитувчи, 1978.
12. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари. -Тошкент, 1972.
13. Шерматов А. Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари атласи. Т., Фан, 1979.
14. Еназаров Т. Ўзбек диалектологияси фанидан амалиёт. -Тошкент, Университет, 1996.

SURXONDARYO QIPCHOQ GURUH SHEVALARIDA BA'ZI MULOHAZALAR (Sho'rchi tumanida Yangibozor qishloq shevasi misolida)

SOME REMARKS ON THE LANGUAGES OF THE SURKHANDARYA KIPCHOQ GROUP (In the example of the Yangibazar village dialect in Shorchi district)

*O'rinova Zarifa,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
Jumayeva Shahnoza, talaba*

Annotation. *The Uzbek language is one of the Turkic languages that is distinguished by its many dialects, and the dialects of which are sharply different from each other. The Uzbek language has forms belonging to the Qarluq, Kipchak and Oghuz dialects, which serve as the greatest source of enrichment of the literary language. The Uzbek literary language has come a long way to the present stage. In the distant past, after living as clans and tribes, they gradually became a nation, and the languages of the nations living in this area also experienced this process. In this article, some words and phrases from the Surkhandarya Kipchak dialect, an integral part of the Uzbek language, were analyzed.*

Keywords. *proverb, riddle, qipchak, karaluq, āvzi, ena, nayman.*

O‘zbek sotsialistik millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponentini asosiy qismi qipchoq-o‘zbeklar tashkil etadi. Bu komponentlarning asosiy qismi tarixiy-xronologik nuqtayi nazardan o‘zbek millatining tarkibiga eng keyin qo‘shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat a‘zolarining yagona va umumiy nomi bo‘lib qolgan, o‘zbek nomini ham shu component olib kelgan. Qipchoq-o‘zbeklar qadimgi davrlarda turkiy xalqlarning qipchoq guruhiga kiruvchi ming, yuz, qirq, qipchoq (tor ma’noda) nayman, qangli, qiyot, qo‘ng‘irot, mang‘it, uyshinlar va kenagas, jaloyir, misit, do‘rmon, qutchi, barqut, baxrin kabi urug‘ va qabilalar asosida tashkil topgan bo‘lib, qadimgi davrlarda Itil (Volga) va Dunay daryolari, Hazar (Kaspiy) dengizi, Orol dengizi, Ural tog‘lari va G‘arbiy Sibirdagi Irtish va Yenisey daryolari bo‘ylarida hamda Yettisuvda yashaganlar va Yettisuvda tuzilgan turk xoqonligida ham ancha katta mavqega ega bo‘lganlar. Ularni ba‘zi adabiyotlarda kumanlar va polopeslar deb ham ataganlar. [Doniyorov, 1968: 8-9]

Ko‘ramizki, qipchoq shevasi tarixi ham uzoq o‘tmishga boradi. O‘sha vaqtdagi shevaning xususiyatlari ham hozirgi kungacha saqlangan. Buni quyidagi maqola orqali ham ko‘rib o‘tamiz. Ushbu maqola Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi tumanida joylashgan Yangibozor qishlog‘ining qipchoq shevasida so‘zlashuvchi aholi tilidan yozib olingan. Ushbu maqolada, shu hududda joylashgan qipchoq shevasidagi ayrim so‘zlarning leksik, morfologik hamda fonetik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning adabiy tildagi muqobilini topish va bir nechta folklor namunalaridan: maqol, topishmoq, iboralarning mazmun va mohiyatini ochishni maqsad qildik. Shu o‘rinda bir nechta maqollarni ko‘rib o‘tamiz:

*Ātāngni kordim āhmāti pāriq,
Enangni kordim tābanī jāriq.*

Bu maqolning ma‘nosi shundayki, ota-onasi sodda, oddiy bir oilaning bolalari ham shunday bo‘ladi. Lekin ba‘zilar borki, oilada boshqacha, ko‘chada boshqacha, o‘ziga yarashmagan kiyimlarni kiyib yuradigan o‘sha oilaning farzandlariga nisbatan xalq orasida shu maqol ishlatiladi.

oli tekkanning ovzi tiyadi

Ushbu maqoldan shuni tushunamizki, masalan, biror ish qilinayotganda, agar unga yordam berilsa, ko‘maklashsa qilayotgan ishining bir qismini yordamlashgan insonga beriladi. Shuning uchun ham aholi orasida kimdir ish yoki yumush bajarayotganda kelib qarab turmasdan yordam berishlik uchun shu maqoldan foydalanadi.

Tiningdi āyāma, nāningni kulga tāyāma.

Bilamizki, tandirda non yopuvchi ayollar yoki nonvoylar non pishirishning, tandirning sir-asrorlarini yaxshi bilishadi. Ya‘ni tandirga qanchalik ko‘p o‘tin yoqsa non yaxshi pishadi va tandirdan ku ustiga tushib ketmaydi. Shuning uchun ham non uvol bo‘lmasligi, kulga tushmasligi uchun shu maqol keng tarqalgan.

Suvdi kormastan yetik kečmä.

Ushbu maqoldan shuni tushunamizki, ko‘rmagan, bilmagan voqea-hodisa yoki narsalarga ko‘rmasdan turib ishonch bildirish yoki ertaga nima bo‘lishini bilmasdan gapirish kabi ma‘nolar mujassam.

*Tešik munčāq jerda qāmas,
Jerda qāsa kimlār āmas.*

Ushbu maqol ramziy ma'nolarga ega bo'lib, teshik munchoq-turmushga chiqmagan qizlar nazarda tutiladi. Uyda o'tirsa ham vaqt o'tib yaxshi joyga albatta turmushga chiqishiga aytiladi va shu kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

*Urug'ingdir āymāg'ingdir,
Birān āvzing māymāg'ingdir.*

Quyidagi maqolda yaqinlari, qarindoshlari ko'p insonlar nazarda tutilib, to'y, yig'in va shu kabi marosimlarda doimo hamjihatlikda bo'lganlarga nisbatan aytiladi.

Tuyāga jāntāq kerak bosa, boyin čözadi.

Bu maqoldan insonga nima kerak bo'lsa hammasiga o'zi yetishishini, harakat qilishini, kimdir kelib bu senga demasdan, insonning o'ziga kerak bo'lgan narsalarini olishi kabi ma'nolar bor. Yuqorida keltirgan maqollarimiz insonlarni to'g'ri yo'lga, yaxshi tomonga yetaklaydi va bu qipchoq sheva vakillari orasida keng tarqalgan. Xalq orasida frazeologizmlar-iboralar ham keng qo'llaniladi. Aniqsa, so'zlashuv nutqida deyarli ko'pchilik insonlar fikrini salbiy yoki ijobiy bo'yoqdor iboralar bilan boyitganida gaplari yanayam aniqroq bo'ladi. Endi shu iboralar qipchoq shevasi vakillari orasida qanday turlari va ko'rinishlari borligini ko'rib chiqamiz.

Kālding nimāsī bār, temir tārāg'i bār.

Bunda boy insonlar ko'zda tutilgan. Hayotda shunday insonlar borki, hamma narsasi bo'la turib kamtar bo'lishadilar, ko'z-ko'z qilishni o'zlariga ep ko'rmaydilar. Amma guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, shunday insonlar borki ziqna, xasis bo'ladilar. Ayni shu ibora mana shu kabi insonlarga nisbatan aytiladi.

Seningam pishananga bir jumalaq pitkāndir.

Bu iboradan uylanmagan yigit yoki turmushga chiqmagan qizlarga nisbatan bir kun sening ham baxting ochiladi, peshonangga ham bir inson yozilgandir degan ma'noda xalq orasida ishlatiladi.

Jāmāndān jārṭi qāpti.

Ushbu iboradan mazmun shundayki, ota-onasi vafot etgan bolalarga aytiladi. Jorti deb ko'ngli yarim, yolg'iz qolgan yetimlar, ota-onasidan faqat shu farzand qolibdi degan ma'noda qo'llaniladi. Iboralar ham shevani, ham adabiy tilni boyituvchi katta bir manba desak yanglishmaymiz.

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko'ra maqollarga o'xshaydi. Ba'zan mazmuniga ko'ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e'tibor bering. „Top” so'zining talaffuz etilishidayoq o'yla, axtar, solishtir, izla ma'nolari yetakchilik qiladi. Unga „ish” qo'sjimchasi qo'shilganda, vazifa aniqlashadi: „-moq” harakat nomi qo'shimchasidan keyin „qo'lingdan kelsa”, „eplasang”, „uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi. Odatda topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini egallagani bilan ham diqqatga sazovor. Maishiy hayotdagi, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar topishmoq mavzularida o'z ifodasini topadi. [Mirzayev va b.2020:209-210] Yangibozor qishlog'ida qipchoq shevasi vakillari orasida ham bir nechta maqollarga duch kelamiz. Hozir shulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz.

Qizil dengiz, qirg'oqlari yashil, baliqlari qora. (javobi tarvuz)

Kichkina jo'gim hov-hov etti, qorni toyib yumalay ketdi. (javobi chaqaloq)

O'zi shirin yeb bo'lmas,

Bemaza deb ham bo'lmas.

Boshi oxiri bir harf,

Hammasi bo'lib to'rt harf.

Professor E.D.Polivanov klassifikatsiyasiga ko'ra Surxondaryo o'zbek shevalari uchinchi dialekt qipchoq lahjasining beshinchi tipidagi janubiy “ž” lovchilar gruppasiga kiritiladi. Ma'lumki professor E.D.Polivanov o'zbek dialektlarini klassifikatsiya qilar ekan, singarmonizm xususiyatining bor yoki yo'qligini nazarda tutadi. U, singarmonizmning mavjudligi eroniy tillar (qadimgi so'g'd, sak, doriy-

hozirgi tijik tillari) ta'siri bilan bog'liq, singarmonizmning yo'qligi esa, shevaning uzoq vaqt eroniy tillar ta'sirida bo'lganligini, shuning uchun eroniy tillarga o'xshab tovushlar singarmonizm qonuniga bo'ysunmaydigan sistemaga ega bo'lib qolgan deb hisoblaydi. Shu nuqtayi nazardan Surxondaryo shevalarini eronlashmagan, ya'ni singarmonizm xususiyatlarini o'zida saqlagan qipchoq yoxud sof o'zbek shevalari gruppasiga kiritadi[Rahimov1885: 9-10]. Maqolada ham shu viloyatga oid bir qncha shevaga oid so'zlar to'plandi va tasnif qilindi. Quyida keltirilayotgan so'zlar so'z turkumi tartibida beriladi.

OT SO'Z TURKUMIDAGI SHEVAGA XOS SO'ZLAR

žögim - qorni ochligidan yalinayotgan bola;

ğavpäläk - palakning bir-biriga tutashib ketganligiga aytiladi. Bu so'z ko'proq poliz ekinlaridagi palaklar nazarda tutiladi;

Šorä - o't turi

Körmänä - ilk marotaba kimnidir ko'rishga borganda beriladigan suyunchi, ko'proq yangi kelinlarga, yangi tug'ilgan chaqaloqlarga beriladi;

Pärmānači – qo'y boquvchi kishi, har doim qarab yurgani, parvona bo'lganligiga aytiladi, adabiy tilda cho'pon;

Čönač - Pärmānachining tayog'i;

Sābāq, sābāv – ko'rpalar uchun paxta solinayotganda to'g'irlash uchun ishlatiladigan tayoq;

Jāv – yog';

Sa°vliy, sa°vliq – qo'yning urg'ochisi;

ğunažin – endigina yetilayotgan sigir;

Kübi – saryog' tayyorlaydigan yog'och yoki temirdan qilingan idish;

Bāv – ip ma'nosida, qandaydir narsaning bog'i;

žizzix – quyruqning qovurilgani;

žilik – adabiy tilda ilik;

Jörmak – to'qilayotgan gilam;

žiyak – ariqning boshi;

žengsa – non yopilayotganda kiyiladigan, odatda choponning yengini qirqib olib non yopish uchun shuni ishlatadi,;

Rapida – ustiga nonni qo'yib tandirga yopishtiriladigan buyum;

Udirgi, undirmiš – xamirturush uchun tayyorlanadigan achitqi;

Söri – stolning bir turi, bunda u stolga nisbatan balandroq bo'ladi;

Girdi – tashqi tomoni, nimanidir sirti;

Keličäk – donlarni, bug'doyni ezadigan temir idish, anjom;

Zarduval – devorga ilinadigan, qo'lda tikilgan kashtaning nomi;

Keštä – adabiy tilda kashta;

Qoviz – beshikni ichiga to'shaladigan mato, uni ichiga yo paxta solingan yoki tori solingan bo'ladi;

Töba – nimanidir boshi, peshona;

žirtiq-pirtiq – yirtiq narsalarga aytiladi;

žeti pušti – yeti avlodi;

Palakat – supurgi salbiy ma'noda ishlatiladi;

Tänä – tana, ko'proq o'simlik yoki darxtlarning tanasiga aytiladi;

Ä°lbästi – gavdali, katta insonlarga nisbatan qo'llaniladigan salbiy ma'nodagi so'z;

Ormak – gilam to'qiydigan asbob;

Tām – xona ma'nosida ishlatiladi;

žüya – palak yoki egatlar orasi;

agat, egät – ekin ekiladigan joy;

Pijla – piyola;
žilqī – adabiy tilda yilqi;
Kurra – adabiy tilda xo‘tik;
ža°nliq – mol yoki qo‘ylarga nisbatan ishlatiladi;
Ča°qā – chaqaloq.

FE‘L SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLAR

hāv-hāv etmāq – bolaning ovqat uchun yalinib yig‘laganiga nisbatan aytiladi;
Na°rmān turmāq – nariroq turmoq, nari ketmoq;
žāyib bermāq – nonga yog‘ surtib bermoq;
Nān žāvmāq – adabiy tilda non yopmoq;
Kurk bolmāq – tovuqlar uchun tuxum bostiriladigan holat. Bunda agar tovuqlarga tuxum qo‘yilganda tovuqlarning kurk bo‘lganligiga shunday so‘z aytiladi;
žox bop ketmāq, žitip ketmāq – anchadan beri ko‘rinmaslik, yo‘qolib ketmoq;
Ijartip kelmāq – yetaklab kelmoq, ergashtirib kelmoq;
žitālāmāq – adabiy tilda yetaklamoq;
a°rdona qa°sīn – boshidan qolsin degan ma‘noda aytiladi;
Gildirātma°q – yerdan aylantirib otmoq.

SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLAR

žārtī – adabiy tilda yarim ma‘nosida;
žāndā, žāndā-žūndā – adabiy tilda eski ma‘nosida;
žāvli külča – yog‘li, bu yerda yog‘li kulcha;
Zānča bāla – kichkina bola;
Hāññi – katta, salbiy ma‘noda qo‘llaniladi;
Boz ba°la – uylanmagan yigit;
jaxtaj – adabiy tilda muzdek;
žirtaqī – o‘ziga, tashqi ko‘rinishiga ko‘p e‘tibor beradigan kishi;
Ta°lli – adabiy tilda shirin;
a°vla°q – chetroqda joylashgan hududlar;
Sātāng – adabiy tilda bezori.

RAVISH SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLAR

Biltir, biltiryī – o‘tgan yil ma‘nosida;
Birnayī žil – 2 yil oldin nazarda tutiladi;
İlla – zo‘rg‘a ma‘nosida. Masalan illa keldingma – zo‘rg‘a keldingmi?
Minčā, ončā, binčā – adabitildagi buncha so‘zining turli xil shakllarda aytilishi;
°Ojaq – adabiy tilda u yoq yoki u yer;
Bijaq, bijer – bu yoq, bu yer;
šujaq, šijer – shu yoq, shu yer;
Mīner – mana bu yer ma‘nosida;
Tūna°vin, tūna°v – adabiy tilda kecha;
Dumir, dombir, dunbir – oldin, avval ma‘nolarida qo‘llaniladi;
Tōbā – adabiy tilda tepalik;
Undāj, mindāj, šindāj – unday, munday, shunday ma‘nolarida ishlatiladi;
Mīner – mana bu yer ma‘nosida;
a°tip – unday qilib ma‘nosida;
Šijtip – shunday qilib;
Bijtip – bunday qilib;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Маслова, В. А. Лингвокультурология : учеб. пособие / В. А. Маслова. М., 2001.
3. Жўраев Б, Кудратов Т. Ўзбек тили шевалари. –
4. Qudratov T. O‘zbek tilining oraliq shevalari. – Toshkent: 1968.
5. Suvonova R. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati. – Samarqand: SamDU, 2019. – 58 b.
6. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 28.
7. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетикаси, Лексикаси). – Тошкент: Фан, 1985.
8. Turdialiyev A. “Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari to‘plami. Nukus. 2022-yil 10-noyabr

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA BOYSUN SHEVASIGA OID LEKSEMALARNING QO‘LLANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

SOME REMARKS ON THE USE OF LAXEMAS RELATING TO THE BOYSUN DIALECT IN THE WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK"

Xolova Muyassar,

*Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots v.b.*

Xurramova To‘lg‘anoy,

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotation: *In this article, an attempt is made to reveal the level of use and the places of use of the lexemes related to the fields of livestock and agriculture of the Boisun dialect used in the work "Devonu Lugatit Turk".*

Key word: *Boysun dialect, dialect, literary language, Sheva, Uzbek dialects, livestock, agricultural fields*

O‘zbek tili turkiy tillar orasida eng qadimgi tillardan bo‘lib, sheva va dialektlarga juda boy. Har bir viloyat, har bir tuman, har bir qishloqning so‘zlashuv uslubi o‘zining shevaviy xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi. Professor Y.D. Polivanov asrimiz birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o‘zining ilmiy ishlarida ma’lumot bergan edi. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlaridan bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga molikdir. Hozirgi zamon jonli sheva va etnogenezlarini yozma yodgorliklarda shuningdek, hozirgi adabiy tilimizda ham uchramaydigan ko‘pgina, so‘z va so‘z formalari lug‘aviy birliklarni o‘zida saqlab qolganki, ularni asosli ravishda o‘rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda yordam beradi. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaligi bilan ajralib turadi. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk" (Turkiy so‘zlar devoni) asarida XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda istiqomad qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metralogiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Asarda qipchoq, qarluq, o‘g‘uz lahjasiga oid so‘zlar keltirilgan bo‘lib, ushbu so‘zlar respublikamizning turli hududlarida hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Asarda Boysun

	Xorazm shevalarida qo‘llaniluvchi ayrim fors-tojik tiliga mansub so‘zlar (Poliz ekinlari va meva nomlari misolida)	
86	Dilshoda Tursunova, Folklorizmlarda istorizmlarning nutqiy voqelanishi	325
87	Suyunova Tilloxon Shoniyozovna, Uy-ro‘zg‘or buyumi nomlarining lingvomadaniy jihatlari	328
88	Abduraxmonova Zumrad Normurot qizi, Xalq og‘zaki ijodi namunalarida nutq madaniyati	332
89	O‘ralova Fazilat Olimjon qizi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ruhiy holat ifodalovchi so‘zlarning talqinida dialektal munosabat masalasi	338
90	Mavjuda Artukmetova, Lug‘at sathi asoslarini o‘zlashtirishda dialektologiya integratsiyasidan foydalanish	341
91	Abdusamatova Aziza, Vobkent tumani shevasi leksikasi xususida	344
92	Muxammedova Sumbul, Maqollarda arxaik vositalar orqali konnotatsiyaning ifodalanishi	348
93	Toshtemirova Gavhar, Yakkabog‘ shevasida eski turkiy til leksikasining takomili	351
94	Jumashov Davlatyor, Saidova Hilola, Yakkabog‘ tumani g‘urjob qishlog‘i shevasidagi ba‘zi so‘zlar xususida	353
95	Musulmonova Marjona, Boysun tuman oraliq shevalari haqida	358
96	Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi, Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi Buxoro lahjasiga xos so‘zlarning leksikografik va semantik tahlili	360
97	Egamqulov Kamoliddin, Qilichova Nafisa Tursunpo‘lat qizi Buxoro viloyati tarkibidagi mikrotoponimlar (nekrnimlar)	363
98	Jumashov Davlatyor, Mallayeva Barno Yakkabog‘ shahri ayg‘irko‘l dialekti xususida	369
99	O‘rinova Zarifa, Jumayeva Shahnoza, Surxondaryo qipchoq guruh shevalarida ba‘zi mulohazalar (Sho‘rchi tumanida Yangibozor qishloq shevasi misolida)	373
100	Xolova Muyassar Abdulhakimovna, Xurramova To‘lg‘anoy Muzaffarovna, “Devonu lug‘otit turk” asarida boysun shevasiga oid leksemalarning qo‘llanilishiga doir ayrim mulohazalar	378
101	Hodiyeva Muhayyo Abdurazzoq qizi, Kasbi tumani oykonimlarining etnotoponimik xususiyatlari	381
102	Shahnoza Ahmedova, O‘zbek tili mingbuloq shevasining leksik tarkibi	384
103	Odina Mamatxonova, O‘zbek tili chortoq shevasidagi ayrim maishiy so‘zlar ma‘no ko‘lami	387
104	Moxinur Noryigitova, Shevaga oid so‘zlarning badiiyatdagi o‘rni	389